

BO'LAJAK SURDOPEDAGOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Mirsaid Yunusov Xudayarovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
yunusovm26@gmail.com

Axrorov Azamat Abrorovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya

Maqolada ta'limning zamonaviy sharoitida bo'lajak surdopedagoglarni zamon talablari asosida kasbiy salohiyatini takomillashtirishning didaktik asoslari hamda o'quv-tarbiyaviy jarayonda uni shakllantirish holati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Raqobatbardosh mutaxassis, kasbiy salohiyat, innovatsion faoliyat, model, aqliy faoliyat, ta'limning inersion modeli, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Аннотация

В статье описаны дидактические основы совершенствования профессионального потенциала будущих сурдопедогогов в современных условиях образования и состояние его сформированности в образовательном процессе.

Ключевые слова: конкурентоспособный специалист, профессиональный потенциал, инновационная деятельность, модель, мыслительная деятельность, инерционная модель образования, личностно-ориентированное образование.

Abstract

The article describes the didactic foundations of improving the professional potential of future deaf teachers in the modern conditions of education and the state of its formation in the educational process.

Key words: Competitive specialist, professional potential, innovative activity, model, mental activity, inertial model of education, person-oriented education.



Surdopedagogika (lot. "surdus"-kar) maxsus pedagogikaning bir tarmog'i bo'lib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va katta yoshli insonlarning rivojlanishi, tarbiyalanishi hamda ta'lim olishi haqidagi fandır.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiya olish jarayonlari va muammolari surdopedagogika fanining predmeti hisoblanadi.

Maktabgacha davr eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir, zero korreksion-pedagogik tadbirlarning erta boshlanishi uning o'sishidagi nuqsonlarni oldini olishga, shuningdek, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi, bilimli shaxsni tarbiyalashga yordam beradi.

Psixolog va surdopedagog olimlar L.S.Vigotskiy, L.A.Golovchis I.M.Solovyov, N.A.Rau, U.Fayziyeva, F.Alimxodjaeva, F.Qodirovalar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy tarbiyalash tizimida dastlabki nuqta deb maktabgacha tarbiyani e'tirof etadilar.

Surdopedagogikaning alohida fan bo'lib ajralishi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos jismoniy, psixik va fiziologik xususiyatlarining mavjudligi, bolalar turmushini tashkil etish va qulay ta'lim-tarbiya shart-sharoitlarni yaratishda ularni hisobga olish zarurligi bilan belgilanadi.

Surdopedagogika fanining asosiy vazifalari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim berish vazifalari ularning rivojlanish imkoniyatlari, ilk maktabgacha davrdan boshlab korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish zaruratidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Eshitish qobiliyatining pasayishi bolaning umumiy rivojlanishiga, birinchi navbatda esa nutqning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Kar va zaif eshituvchi bola gapira olmaydi, o'zgalar nutqini tushunmaydi, muloqotda esa cheklangan miqdordagi imo-ishoralardan foydalanadi.

Kundalik turmushda, kattalarga taqlid qilib oddiy xatti-harakat va faoliyat turlarini o'zlashtira oladilar, turli buyumlarning funksional vazifalarini, ulardan foydalanishni o'zlashtiradilar, o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarni egallaydilar. Maxsus yo'naltirilgan ta'lim berish uchun qulay shart-sharoit yaratilmagan holda, bolalarning sensor va intellektual rivojlanishi so'zli nutqdan xoli kechadi.

Shunday qilib, eshitish qobiliyatining pasayishi va nutqiy rivojlanishning buzilishi oqibatida bolaning rivojlanishi to'xtamasa-da, ancha cheklanib qoladi.

Demak, bu bolaning risoladagidek rivojlanishi uchun, me'yorda eshitadigan bolalardan ko'proq maxsus ta'lim-tarbiya sharoitlari zarur bo'ladi. Eshitishda



nuqsoni bo'lgan bolalarga ilk yoshdan boshlab maxsus ta'lim-tarbiya berilsa, uning umumiy rivojlanishidagi orqada qolishni oldini olish hamda ularning rivojlanishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Islahotlarning muvaffaqiyatlari tizimning asosiy bo'g'ini bo'lgan ta'lim muassasasining qanday o'zgarishi yaqin kelajakda va istiqbol rejalarda nimalarni belgilashida o'z aksini topadi. Ta'lim tizimini rivojlanishi, barkamol shaxsga ta'lim-tarbiyani to'g'ri berib borish jonkuyar pedagoglar qo'lidadir. Shunday ekan, ularning kasbiy tayyorgarliklari, bajaradigan vazifalarini to'g'ri tashkil etish masalasi ahamiyatga molikdir.

Hozirgi davrda surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, ularning mahoratlarini yanada yuksaltirish, shart-sharoitlar yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa o'qituvchilarga yuksak darajada mas'uliyat yuklaydi, eng avvalo surdopedagog uchun darsning sifat va samaradorligiga erishish muhim masalaga aylanmog'i zarur. Ularning ta'lim tizimida olib borayotgan vazifalari kasbiy tayyorgarliklari bilan bevosita bog'liq.

Bo'lajak o'qituvchining pedagogik madaniyat tuzilmasida uning odob-ahloq bo'limi muhim o'rin egallaydi. Bu pedagogik ishonch jarayonining shakllanishi, natijasi va o'qituvchining o'z qiziqishlarini ko'proq aniqlash jarayonidir.

O'qituvchi - kasbiy muhitdan pedagogik jarayonga, o'zining tutgan o'rnini yangilashga faol kirib borishi zarur. Pedagogik madaniyatning kasbiy faoliyatiga bog'liq tashkil etuvchisi surdopedagog tomonidan o'zining pedagogik qobiliyatlarining barcha spektrini bilib olganligini xarakterlaydi, bu esa pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining nishonasi, pedagogik xatolarning oldini olish va nihoyat, pedagogik qobiliyat usullarini egallanganligidan iborat.

Ma'naviy madaniyat yetuk bilimlarning nazariy darajasi holatida shakllanuvchi axloqiy bilimni o'z ichiga oladi. Bu kasbiy pedagogik etikadan iborat.

Suqrot pedagoglarni "Fikrlar doyasi" deb atagan edi. Pedagogning mahorati shunda ko'rinadiki, u avvalo o'quv jarayonini shunday tashkil qiladiki, eng qiyin sharoitlarda ham talabalarning rivojlanishi, bilimlarga ega bo'lishiga erishadi. Haqiqiy o'qituvchi har bir talabani biladi, ruhiyatini tushunadi, uning ongiga yo'l topa oladi, fikr uyg'otib, uni to'lqinlantiradi.

O'qituvchi o'rgatuvchi emas, bilimni egallashga o'rgatuvchi, tarbiyalovchi emas, balki tarbiya jarayonini boshqarishga yo'naltiruvchidir. O'qituvchining boshqarish funksiyasini aniqlashtirish maqsadida «Pedagogik loyiha» deb



ataluvchi tushunchadan foydalanib, u orqali har qanday mo'ljallangan ish va uni oxiriga yetkazish tushuniladi: dars, dars soati, mavzuni yoki uning bo'limini o'rganish, olimpiada yoki tadbirlar va boshqalar.

Mazkur ishlarni surdopedagog boshqarishi zarur, agar u o'ylab va aql-bilan boshqarilsa, natijada shuncha kam vaqt sarflanadi va shuncha ko'p samaradorlikka erishiladi.

Surdopedagogning kasbiy potentsiali.

Surdopedagogning chegaralangan sifati ahamiyatli bo'lmasdan, ularning majmui, to'la tizimi ahamiyatga ega bo'ladi. O'qituvchi mahoratining tizimi, xarakteri, yangi integrallashgan tushunchasi surdopedagogning kasbiy potentsialida (PKP) o'z aksini topadi. Bunday ta'rifning ahamiyatli tomoni shundan iboratki, u o'ziga ko'plab turli rejali va turli darajali o'qituvchining tayyorgarlik va faoliyat aspektlarini birlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, surdopedagog kasbiy potentsialining eng yaqin umumiy tushunchasi pedagogning kasbiy bilimdonligidir. Kasbiy bilimdonlik bu fikrlashni bilish va kasbiy bilimdonlik bilan harakat qilishdan iborat. Surdopedagog kasbiy potentsiali umumiy tuzilishining tashkil etuvchilariga intellektual, asoslangan, kommunikativ, ijodiy va o'z kasbiy qobiliyatlari kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кузьмичева Е.П., Яхнина Е.З. Обучение глухих детей восприятию и воспроизведению устной речи / под ред. Назаровой Н.М. – М.: Академия, 2011.
2. Миронова Э.В. Обучение внезапно оглохших (детей и взрослых) восприятию устной речи/учебно-методическое пособие. М.2000.
3. Атабаев, Ш. Э., & Юнусов, М. Х. (2019). Методика обучения детей с нарушением слуха на основе мультимедийных средств. In ИНФОРМАЦИЯ О КОНФЕРЕНЦИИ (p. 22).
4. Khudayarovich, M. Y. (2022). THE ROLE OF COMPUTER TECHNOLOGY IN SPECIAL EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 655-660
5. Yunusov, M. (2021). Eshitish qobiliyatini rivojlantirish darslarida multimedia vositalaridan foydalanish metodikasi. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1190>

6. Yunusov, M. (2021). Maktabgacha yoshdagi eshitish qobiliyati cheklangan bolalar talaffuzini korreksiyalashda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4599>
7. Yunusov, M. (2021). Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning kognitiv faolligini rivojlantirishda axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(3). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4062>
8. Yunusov, M. (2021). Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning innovatsion ko'rgazmali usullari. Scienceweb academic papers collection.
9. Yunusov, M. (2021). Eshitish qobiliyati cheklangan bolalarda o'quv faoliyati uchun motivatsiyani oshirish vositasi sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish. Scienceweb academic papers collection.
10. Yunusov, M. (2021). Kar bolalarni o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Scienceweb academic papers collection..